


“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston respublikasi
kambag‘allikni qisqartirish va bandlik
vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi raisi

2026-yil “24” aprel

**O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi
huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2026-yilga mo‘ljallangan
ISH REJASI**

№	Chora-tadbirlar nomlanishi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
1.	Vazirlik faoliyati yuzasidan jamoatchilik bilan tizimli muloqotni yo‘lga qo‘yish.	1. Har chorakda kamida bir marotaba ochiq muloqot tashkil etish; 2. Vazirlik vakillari, NNT va fuqarolar ishtirokini ta’minlash; 3. Savol-javoblar protokollashtirilib, aniqlangan muammolar bo‘yicha vazirlikka rasmiy takliflar kiritish.	2026-yil davomida	Jamoatchilik kengashi a‘zolari, vazirlikning tegishli boshqarmalari
2.	Fuqarolar murojaatlarini jamoatchilik nazorati asosida ko‘rib chiqish.	1. Kelib tushgan murojaatlarni tematik yo‘nalishlarga ajratish; 2. Tanlab olingan murojaatlar bo‘yicha joyiga chiqib o‘rganish; 3. Murojaatga berilgan javob sifati va asoslanganligini tahlil qilish.	2026-yil 2-chorak	Jamoatchilik kengashi a‘zolari, Tashkiliy-nazorat boshqarmasi
3.	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish.	1. Hujjat loyihalarini kengash a‘zolari, ekspertlar va jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish; 2. Muhokama bayonnomasini shakllantirib vazirlikka takliflar kiritish.	2026-yil davomida	Jamoatchilik kengashi a‘zolari, Yuridik ta’minlash bo‘limi
4.	Davlat dasturlari loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish.	1. Amaldagi muammolar tahlili asosida aniq takliflar tayyorlash; 2. Ishchi guruhlarda to‘liq qatnashish; 3. Dastur loyihasiga jamoatchilik manfaatlarini kiritish.	2026-yil davomida	Jamoatchilik kengashi a‘zolari, vazirlikning tegishli boshqarmalari

5.	Vazirlik faoliyatini jamoatchilik bilan ishlash asosida baholash.	1. Jamoatchilik o'rtasida anonim so'rov o'tkazish; 2. Natijalarni tahlil qilib vazirlikka tavsiyalar berish.	Har chorakda	Jamoatchilik kengashi a'zolari, vazirlikning tegishli boshqarmalari
6.	Vazirlik faoliyatining ochiqligini monitoring qilish.	1. Rasmiy sayt, ijtimoiy tarmoqlar va ochiq ma'lumotlar bazasini tahlil qilish; 2. Axborot yetishmovchiligi aniqlansa, kengaytirish bo'yicha takliflar berish.	2026-yil davomida	Jamoatchilik kengashi a'zolari, Axborot xizmati
7.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha jamoatchilik nazoratini amalga oshirish.	1. Korrupsiyaga qarshi profilaktik choralar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.	Har chorakda	Jamoatchilik kengashi a'zolari, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi
8.	Vazirlik tizimidagi ijtimoiy muammolarni kompleks o'rganish.	1. Xodimlar va ularning oilalari o'rtasida so'rovlar o'tkazish, yashash, xizmat va tibbiy sharoitlarni o'rganish, muammolar bo'yicha tahliliy hisobot tayyorlash.	Har chorakda	Jamoatchilik kengashi a'zolari, Axborot xizmati, tegishli boshqarmalari
9.	NNT va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish.	1. Qo'shma loyihalar ishlab chiqish; 2. Muammoli masalalarni birgalikda muhokama qilish va yechimlar ishlab chiqish.	2026-yil davomida	Jamoatchilik kengashi a'zolari, Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boshqarmasi
10.	OAV bilan hamkorlik orqali vazirlik faoliyatini keng qamrovli yoritish.	1. Matbuot anjumanlari, chiqishlar va maqolalar orqali jamoatchilikni xabardor qilish, kamchiliklarni ochiq muhokama qilish.	Har chorakda	Jamoatchilik kengashi a'zolari, Axborot xizmati.
11.	Fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashish.	1. Murojaatlar asosida muammolarni aniqlash; 2. Tegishli tashkilotlarga asosli takliflar kiritish.	Doimiy	Jamoatchilik kengashi a'zolari, Inson resurslarini rivojlantirish

				va boshqarish boshqarmasi, tegishli boshqarmalar
12.	Vazirlik faoliyatida qonunchilik talablariga rioya etilishini o'rganish.	1. Qonunbuzarliklar aniqlanganda, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar berish.	2026-yil davomida	Jamoatchilik kengashi a'zolari, Tashkiliy-nazorat boshqarmasi, Yuridik ta'minlash bo'limi.
13.	Jamoatchilik kengashi tavsiyalarining ijrosini monitoring qilish.	1. Kiritilgan takliflarning bajarilishi bo'yicha hisobot yuritish.	2026-yil davomida	Jamoatchilik kengashi a'zolari, vazirlikning tegishli boshqarmalari
14.	Vazirlik rahbariyatining fuqarolar bilan bo'lib o'tadigan uchrashuvlarida ishtirok etish.	1. Muammolarni qayd etish va ularning ijrosini nazorat qilish.	Doimiy	Jamoatchilik kengashi a'zolari, vazirlikning tegishli boshqarmalari
15.	Jamoatchilik nazorati natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotlar tayyorlash	1. Har chorak yakunida umumlashtirilgan hisobot tayyorlash va vazirlikka taqdim etish.	Har chorakda	Jamoatchilik kengashi a'zolari, vazirlikning tegishli boshqarmalari
16.	Jamoatchilik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash.	1. Eng dolzarb tashabbuslarni saralash va ularni amalga oshirishga ko'maklashish.	Har chorakda	Jamoatchilik kengashi a'zolari, vazirlikning tegishli boshqarmalari
17.	Jamoatchilik kengashi majlislarini samarali tashkil etish.	1. Kun tartibini muammolarga asoslab shakllantirish; 2. Qarorlar ijrosini nazorat qilish.	2026-yil davomida	Jamoatchilik kengashi a'zolari, vazirlikning tegishli boshqarmalari

18.	Jamoatchilik kengashi faoliyatining umumiy samaradorligini oshirish.	<ol style="list-style-type: none">1. Faoliyatni takomillashtirish bo'yicha yangi mexanizmlar ishlab chiqish va joriy etish;2. O'tgan yil natijalaridan kelib chiqib yangi rejani shakllantirish;3. Barcha yo'nalishlar bo'yicha natijalarni umumlashtirish;4. Har bir muammo bo'yicha aniq yechimlar ishlab chiqish.5. Yangi metodlar joriy etish, tajriba almashish.	2026-yil yakunida	Jamoatchilik kengashi a'zolari, vazirlikning tegishli boshqarmalari
-----	--	---	-------------------	---